

## **O'zbekistonda vaqf mulklari: tarix va hozirgi zamon (Samarqand misolida)**

Shokir Safarovich G'offorov

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Sharif Radjabovich Umurov

Sharifumurov2020@gmail.com

Sarvar Ismat o'g'li Nosirov

Samarkand davlat tibbiyot universtiteti

**Annotatsiya:** Maqolada Turkiston tarixiga e'tibor qaratilgan Rossiya imperiyasining mustamlakachilik hukmronligi, XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti masalalari. Mamlakatimiz poydevorini o'rganish, ularga o'sha paytdagi xurujlar xalqimizga azaldan o'ziga xos bag'rikenglik va bag'rikenglikni anglash imkonini beradi. Zero, vaqf zamirida eng ezgu niyatlar, ezgu tuyg'ular mujassam.

**Kalit so'zlar:** mustamlakachilik, ta'lim, vaqf, mulkchilik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar

## **Foundation properties in Uzbekistan: history and present (example of Samarkand)**

Shakir Safarovich Gaffarov

Samarkand State University named after Sh.Rashidov

Sharif Radjabovich Umurov

Sharifumurov2020@gmail.com

Sarvar Ismat o'g'li Nosirov

Samarkand State Medical University

**Abstract:** The article focuses on the history of Turkestan, the colonial rule of the Russian Empire, issues of the socio-economic life of Turkestan in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century. Studying the foundation of our country allows them to understand the unique tolerance and tolerance of our people since the time of attacks. After all, the best intentions and best feelings are embodied in the foundation of the foundation.

**Keywords:** colonialism, education, endowment, ownership, socio-economic relations

Vaqf O'rta Osiyo hududida, husasan islomiy davlatlarda keng tarqalgan savob uchun tarqatiladigan ya'ni ehson qilinadigan mulkdir. Vaqf qilanadigan mulklar bu pul, mol-mulk yoki ko'chmas mulk tariqasida hadya etiladigan yer maydoni, do'kon yoki rasta bo'lishi ham mumkin. Vaqf bu sadaqa emas, sadaqa bu bir narsani infoq qilish bilan sodir bo'lsa, vaqf o'sha narsani ushlab turgan holatda, undan keladigan foydani yaxshi amallar va savob yo'li uchun sarflab borishdir. Vaqf so'qf so'zining tarjimai "tutib turish", "to'xtatish", "qo'zg'almas" ma'nolarida keladi.

Vaqf asosan maktablar, masjidlar, madrasalar, va vaqf mahkamalari foydasiga ehson tariqasida beriladi. Vaqfning 40 dan ortiq turi mavjud bo'lib shundan 20 foizigina ya'ni 8 tasi diniy maqsadlarda foydalanadi. Bunda ma'lum bir yuridik shaxs tomonidan madrasa, korxonalar, maktab va shu kabi yo'l ta'mirlash ishlariga vaqf qilingan. Vaqf yerlaridan tushadigan daromad va foydadan esa yetim-yesirlar va kambag'allar uchun un, yog', guruch, bug'doy, non, hamda o'tin sotib olishi uchun pul ajratilgan. Odatda katta-katta yerlar, bog'lar, kitoblar, qimmatbaho zeb-ziynat toshlar hattoki kitobar ham vaqf qilingan. Vaqf xonliklar davrida qozilar tomonidan yozma ravishda tuzilgan. Biror narsasini vaqf qilmoqchi bo'lgan shaxs zarur guvohlar bilan qozi oldiga borib o'z maqsadini aytgan. Vaqf hujjatini tuzish uchun esa quyidagilar kerak bo'lar edi: kelishayotgan shaxslar va bu hujjatni tuzayotgan vaqtda ikki guvohning bo'lishi lozim va agrda guvohlardan biri vafot etgan taqdirda bu hujjat mavjud bo'lsa ya'ni bor bo'lsa bu hujjat, kelishuv bajarilgan deb hisoblanar edi. Bundan tashqari bu hujjatda vaqf qilingan mulklar ro'yhati, nima maqsadda vaqf qilayotgani, unga ta'yinlangan nazorat qiluvchining ism Sharifi va qay tartibda bo'lingani undan tushadigan foydalar nima qilinishi, vaqf qilgan odamlarning ism sharifi, ko'chmas mulk bo'lsa uning joylashgan o'rnini chegaralari aniq qilib ko'rsatilgan bo'lishi lozim edi. Vaqf nomalar oraladigan qog'oz yoki kitob shaklida yozilgan.

Vaqfning bizgacha asl nusxa va ko'chirma hoida yetib kelgan turlari ham mavjud. Asl nusxasi o'sha davrda xonliklar tomonidan imzolab muhrlangan turlari bo'lib, ular asosan sud ishlari, turli janjallar va imtiyozlar shu qatori boshqa narsalarga asos bo'lib kerak bo'lgan. Ko'chirma nusxalari esa ikki ko'rinishda bo'lgan: 1) tasdiqlangan (ya'niki muhrlangan). 2) tasdiqlanmagan (muhrlanmagan) bo'lgan. Bundan tashqari vaqfning asosan ikki turi ko'p uchragan bular asosiy va oddiydir. Vaqfning asosiy turida biror narsasini vaqf etayotgan shaxs, vaqf qilingan narsasidan to'laqonli imtiyozlaridan ayrilgan, ya'niki undan kelayotgan har qanday foydadan mahrum etilgan bo'lib, bunda vaqf etilgan narsa to'laqonli hayr ehson mazmunini kasb etardi. Ikkinchi oddiy turi "vaqfi avlod" deb ham atalgan va bu turida vaqf qilingan narsadan to'laqonli mahrum etilmagan ya'ni undan keladigan foydaning hujjatlarda oz miqdori, vaqf qilgan shaxsga va uning avlodlariga kelib-kelib turgan. Vaqfni ko'pincha viloyat hokimlari, katta yer egalari o'z yerlarini talon-toroj

bo'lmashligi uchun vaqf qilishgan. Vaqf qilingan yer doimiy bo'lib uni sotish, sotib olish yoki sovg'a qilish va boshqa biror yo'l bilan egalik qilish mumkin emas edi. Vaqf yerlaridan tushadigan foydalar esa asosan masjidlar qurilishiga, madrasalarning qayta ta'mirlanishiga, shifoxonalarga ham ajratilgan.

Tarixda, shu jumladan XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkistonda butunlay hukmron bo'lib qolgandan so'ng aynan general Shpitsberg o'rniga Arendarenko Samarqand hokimi etib tayinlangandan keyin vaqf mulklarini qaytadan ko'rib chiqib, 1873-yili rus hukumati tomonidan tortib olingan Sherdor va Tillakori madrasalarining hujralarining o'z egalariga qaytarildi. Bunday haqiqatni ko'rgan vaqf mulklarini egalari va mutavvalilar "Volost" boshqaruvchilari o'z mansabi tufayli vaqf daromadlaridan foydalanayotganligini aytib o'z yerlarini qaytadan o'lchashni viloyat hokimi Arendarekodan iltimos qiladilar. Lekin ularning bu iltimosiga haqiqatdan ham vaqf mahkamalari yerlaridan ko'p soliq olinayotganligining unga ham ma'lum ekanligi, yerlarni ikkinchi marotaba o'lchab chiqish uchun esa buyruq berilmaganligini mutavvali va vaqf Mulki egalariga ochiq-oydin aytdi. Bundan ko'rinib turibdiki Turkiston general-gubernatorligi qonundan ham chetga chiqib vaqf mahkamasi bilan mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlarni zo'rlik bilan yo'qotmoqda edi.

Shunday qilib, vaqf mahkamalari 1877-yillarda o'z yerlaridan olingan daromadini uyezd boshqarmasidan olayotgan bo'lib, shunda ham mazkur daromadning bir qismi ushlab qolinayotgandi. Mustamlakachilar amalga ishirayotgan bunday tadbirlar tufayli boshqa yerlarda ham ahvol xuddi shunday edi. Jumladan, Qo'qon xonligi chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan keyin uyezd ma'muriyati tashabbusi bilan madrasa va diniy mahkamalarda lavozimlar qo'shib yuborildi. Mutavvalilar yangi hukumatga ma'qul kelgandan keyingina tayinlayotgan edi. U esa vaqfnoma talablariga va shariat qonun-qoidalariga zid bo'lib maktab, madrasalardagi ta'lim tarbiya ishlarini izdan chiqishiga olib kelmoqda edi. Bu haqda o'sha vaqtlarda nufuzli shaxslardan biri bo'lgan Muhiddin Hoji shunday degandi: "Ma'lumki vaqfnomaga asosan vaqf mulklaridan olingan daromad birinchi navbatda mazkur vaqf mahkamasini, ya'ni madrasani ta'mirlash uchun, keyin esa chetda qolmoqda. Shuning uchun ham bu yerdagi vaqf daromadlari talon-taroj qilinmoqda. Buning asosiy sababi biror-bir mahkama yoki shaxs tomonidan mazkur o'quv dargohlarining nazorat qilinmasligidir. Turkiston o'lkasi rus hukumati tomonidan bosib olingandan buyon birona ham rahbar bizning o'quv ishlarimiz qanday ahvolda, nimalar o'qitilmoqda va qanday usul bilan ish olib borilmoqda deb qiziqqani ham yo'q. Buning isboti sifatida birona ham xodimning rag'batlantirilmagani yoki ularga nisbatan chora ko'rilmaganligini ko'rsatishimiz mumkin. Agar ushbu holat davom etadigan bo'lsa u holda yosh avlodlardagi ilmga qiziqishini yo'qotib borishi, hatto o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Muhiddin Hoji tomonidan bunday dalillarni

keltirishi masalasiga kelsak bu chor hukumati amalga oshirayotgan tadbirlarning samarasi bo'lib bular mustamlakachilar uchun ayni muddao edi".

Mana shunday bir paytda 1891-yilning 10-apreliga kelib vaqf mahkamalarining mulklari tug'risidagi avvalgi qonun-qoidalar baron Vreevskiy tomonidan yana qayta ishlab chiqiladi. Bunda vaqf mahkamalari va ularning mulklari, huquqi mazkur mahkamalarni soliqlardan ozod etish bilan aralashtirib yuboriladi. Jumladan, viloyat boshqarmalari uchun qayta ishlab chiqilgan qo'llanmaning 5-moddasida shunday deyilgandi: Viloyat boshqarmasiga topshirilgan vaqfnomalardan "amir" va "xon"larning muhri bor bo'lgan vaqf hujjatlari ajratib olinib maxsus komissiya orqali Komissarga o'rganib va tekshirib chiqish uchun beriladi. Qolgan vaqfnomalar esa keying ko'rsatmalar bo'lgunga qadar viloyat boshqarmasidan qoldiriladi. Bunday qonunga xilof ravishda ish tutish bilan ko'pchilik vaqf hujjatlarini general-gubernatorlik ishlab chiqqan qullanmalarga javob berish masalalari o'rganila boshlandi". Bu bilan viloyat boshqarmalari va komissiya a'zolarini soxta yo'lga solib qo'lyildi ya'ni endilikda asosiy diqqat e'tibor "amir" va "xon" lar muhri masalasiga qaratilmoqda edi.

Viloyat boshqarmalariga vaqf hujjatlarini topshirilgandan beri ancha vaqt o'tdi. Albatta, oradan o'tgan shu davr mobaynida ko'pgina mutavvalilar qazo qildi. Ularning o'rniga esa yangi mutavvalilar tayinlangan bo'lib, bularning ko'pchiligi haqiqiy vaqf hujjatlarini ko'rmagan va bu hujjatlarni qachon, qay vaqtda kimga topshirilganini ham bilmasdi, chunki vaqf hujjatlarini hukumat tomonidan olingani haqida tilxat berilmagan edi. Lekin Mutavvalilar vaqf mahkamasi uchun davlat xazinasidan pul olayotgandi. 1891-1892-yillarda vaqf yerlarini tekshirib, o'lchab chiqqanlarida ushbu yerlar vaqfnomalarda boshqacha ekanligi ma'lum bo'ldi. Albatta, buning sababini mutavvalilarning ko'pchiligi yangi tayinlangani uchun ham tushuntirib bera olmadilar. Bu yerda shuni ham ta'kidlab, o'tishimizga to'g'ri keladiki, 1877-yilgi tekshiruv natijasida vaqf yerlarining maydoni hujjatdagidan kam qilib yozib olingandi.

Komissarlarning yuqoridagi savollariga ko'pchilik vaqf yerlarida ishlayotga aholi berib yerning haqiqatdan ham vaqf yer ekanligi va uning maydoni shuncha, shu yerlarni o'z ichiga oladi deb tushuntirdi. Lekin ularning bu ko'rsatmalari inobatga olinmadi va vaqf hujjatini shubhali deb belgilab olindi. Mana shundan keyin vaqf mulklarini qaytadan ko'rib chiqib, 1873-yili rus hukumati tomonidan tortib olingan Sherdor va Tillakori madrasalarining hujralarining o'z egalariga qaytarildi. Bunday haqiqatni ko'rgan vaqf mulklarini egalari va mutavvalilar "Volost" boshqaruvchilari o'z mansabi tufayli vaqf daromadlaridan foydalanayotganligini aytib o'z yerlarini qaytadan o'lchashni viloyat hokimi Arendarekodan iltimos qiladilar. Lekin ularning bu iltimosiga haqiqatdan ham vaqf mahkamalari yerlaridan ko'p soliq olinayotganligining unga ham ma'lum ekanligi, yerlarni ikkinchi marotaba o'lchab

chiqish uchun esa buyruq berilmaganligini mutavvali va vaqf Mulki egalariga ochiq-oydin aytdi. Bundan ko'rinib turibdiki Turkiston general-gubernatorligi qonundan ham chetga chiqib vaqf mahkamasi bilan mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlarni zo'rlik bilan yo'qotmoqda edi.

Shunday qilib, vaqf mahkamalari 1877-yillarda o'z yerlaridan olingan daromadini uyezd boshqarmasidan olayotgan bo'lib, shunda ham mazkur daromadning bir qismi ushlab qolinayotgandi. Mustamlakachilar amalga ishirayotgan bunday tadbirlar tufayli boshqa yerlarda ham ahvol xuddi shunday edi. Jumladan, Qo'qon xonligi chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan keyin uyezd ma'muriyati tashabbusi bilan madrasa va diniy mahkamalarda lavozimlar qo'shib yuborildi. Mutavvalilar yangi hukumatga ma'qul kelgandan keyingina tayinlayotgan edi. U esa vaqfnoma talablariga va shariat qonun-qoidalariga zid bo'lib maktab, madrasalardagi ta'lim tarbiya ishlarini izdan chiqishiga olib kelmoqda edi. Bu haqda o'sha vaqtlarda nufuzli shaxslardan biri bo'lgan Muhiddin Hoji shunday degandi: "Ma'lumki vaqfnomaga asosan vaqf mulklaridan olingan daromad birinchi navbatda mazkur vaqf mahkamasini, ya'ni madrasani ta'mirlash uchun, keyin esa chetda qolmoqda. Shuning uchun ham bu yerdagi vaqf daromadlari talon-taroj qilinmoqda. Buning asosiy sababi biror-bir mahkama yoki shaxs tomonidan mazkur o'quv dargohlarining nazorat qilinmasligidir. Turkiston o'lkasi rus hukumati tomonidan bosib olingandan buyon bironta ham rahbar bizning o'quv ishlarimiz qanday ahvolda, nimalar o'qitilmoqda va qanday usul bilan ish olib borilmoqda deb qiziqqani ham yo'q. Buning isboti sifatida bironta ham xodimning rag'batlantirilmagani yoki ularga nisbatan chora ko'rilmaganligini ko'rsatishimiz mumkin. Agar ushbu holat davom etadigan bo'lsa u holda yosh avlodlardagi ilmga qiziqishini yo'qotib borishi, hatto o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

Muhiddin Hoji tomonidan bunday dalillarni keltirishi masalasiga kelsak bu chor hukumati amalga oshirayotgan tadbirlarning samarasi bo'lib bular mustamlakachilar uchun ayni muddao edi".

Mana shunday bir paytda 1891-yilning 10-apreliga kelib vaqf mahkamalarining mulklari tug'risidagi avvalgi qonun-qoidalar baron Vreevskiy tomonidan yana qayta ishlab chiqiladi. Bunda vaqf mahkamalari va ularning mulklari, huquqi mazkur mahkamalarni soliqlardan ozod etish bilan aralashtirib yuboriladi. Jumladan, viloyat boshqarmalari uchun qayta ishlab chiqilga qo'llanmaning 5-moddasida shunday deyilgandi: Viloyat boshqarmasiga topshirilgan vaqfnomalardan "amir" va "xon"larning muhri bor bo'lgan vaqf hujjatlari ajratib olinib maxsus komissiya orqali Komissarga o'rganib va tekshirib chiqish uchun beriladi. Qolgan vaqfnomalarda esa keying ko'rsatmalar bo'lgunga qadar viloyat boshqarmasidan qoldiriladi. Bunday qonunga xilof ravishda ish tutish bilan ko'pchilik vaqf hujjatlarini general-gubernatorlik ishlab chiqqan qullanmalarga javob berish masalalari o'rganila

boshlandi". Bu bilan viloyat boshqarmalari va komissiya a'zolarini soxta yo'lga solib qo'lyildi ya'ni endilikda asosiy diqqat e'tibor "amir" va "xon" lar muhri masalasiga qaratilmoqda edi.

Viloyat boshqarmalariga vaqf hujjatlarini topshirilgandan beri ancha vaqt o'tdi. Albatta, oradan o'tgan shu davr mobaynida ko'pgina mutavvalilar qazo qildi. Ularning o'rniga esa yangi mutavvalilar tayinlangan bo'lib, bularning ko'pchiligi haqiqiy vaqf hujjatlarini ko'rmagan va bu hujjatlarni qachon, qay vaqtda kimga topshirilganini ham bilmasdi, chunki vaqf hujjatlarini hukumat tomonidan olingani haqida tilxat berilmagan edi. Lekin Mutavvalilar vaqf mahkamasi uchun davlat xazinasidan pul olayotgandi. 1891-1892-yillarda vaqf yerlarini tekshirib, o'lchab chiqqanlarida ushbu yerlar vaqfnomalarda boshqacha ekanligi ma'lum bo'ldi. Albatta, buning sababini mutavvalilarning ko'pchiligi yangi tayinlangani uchun ham tushuntirib bera olmadilar. Bu yerda shuni ham ta'kidlab, o'tishimizga to'g'ri keladiki, 1877-yilgi tekshiruv natijasida vaqf yerlarining maydoni hujjatdagidan kam qilib yozib olingandi.

Komissarlarning yuqoridagi savollariga ko'pchilik vaqf yerlarida ishlayotga aholi berib yerning haqiqatdan ham vaqf yer ekanligi va uning maydoni shuncha, shu yerlarni o'z ichiga oladi deb tushuntirdi. Lekin ularning bu ko'rsatmalari unobatga olinmadi va vaqf hujjatini shubhali deb belgilab olindi.

Hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonimizda ham "Vaqf" hayriya jamoat fondi tashkil etilgan . bu haqda 2018-yilning 16-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoni imzolandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yuki. T .: Shark 1998, B.23.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ga 1-ilova //http://strategiya.regulation.gov.uz
3. Nalivkin V.P "Vakfnogo deloning Turkistonskaya krae do i posle yego zavoevaniyadagi pozitsiyasi.// Yejegodnik Ferganskoy obasti, tom III. Yangi Margelan. 1904, S.1-15
4. Rostislavov M.N. Ocherk vidov zemelnoy sobstvennosti i pozemelniy vivoz v Turkestanskom krae //. Trudi 3-go Mejdunarodnogo s'ezda fontalistov, tom I, SPB. 1876. S. 335-350
5. Xoroshxin A.P.Vakufi Toshkentda // Turkmenskie vedomosti. 1908. T. 454. - S.58

6. Yemelyanov N. Chislennost vakfov Turkestanskogo kraja.//Turkenstanskiy sbornik. T.461. S.3-6

7. Bartold V.V. Turkistonda madaniy hayot tarixi // Sochinenie T.2.Ch.1.-M: Nauka. 1968.-S.314-315. Sobirjon Boltayev darslik 2 2005 12. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yuk. T.: Shark 1998, B.23.

8. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-sonli farmoning 1-ilovasiga keltirilgan «2017-2021 yillarda Uzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha xarakterlar strategiyasi //http://strategy.regulation.gov.uz

9. Nalivkin V.P “Polojenije vakfnogo delo v Turkistanskom kraje do i posle yego zavoyevaniya.// Yejegodnik Ferganskoj oblasti, tom III. Novyy Margelan. 1904, S.1-15

10. Rostislavov M.N. Oчерk vidov zemelnoy sobstvennosti i pozemelnyy vyivos v Turkestanskom kraje//. Trudy 3-go Mejdunarodnogo syezda fontalistov, tom I, SPB. 1876. S. 335-350.

11. Majidov S.F., Karimova R. (2022). The formation of dentistry as a science: international and national experience. Thematics Journal of History, 8(1).

12. Umurov, S.R. (2022). Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida vaqf mulklarining ahvoli. Science and Education, 3(4), 1460-1466.

13. G'offorov, S.S., Umurov, S.R. (2021). Rossiya imperiyasining Turkistonda ta'lim sohasi va vaqf mulkchilik siyosatiga munosabati tarixshunosligi masalalari. Science and Education, 2(11), 1120-1126.

14. Radjabovich, U.S. (2022). On the issue of the policy of the Russian Empire to waqf property in Colonial Turkestan. Thematics Journal of Social Sciences, 8(3).

15. Khakberdiyeva, V. J., Abdukhayibova, S. D., Majidov, S.F. (2021). Social philosophy and its importance in society. Science and Education, 2(11), 1010-1015.

16. Джураев, Д.Р., Мажидов, Ш.Ф. (2021). Некоторые вопросы учения Аристотеля об экономике и хрематистике. Science and Education, 2(5), 1022-1026.

17. Мажидов, Ш. Ф. (2014). Конфликтность этнокультурных процессов эпохи глобализации в контексте учения П. Сорокина. Сорокина/Питирим Сорокин и парадигмы глобального развития XXI века (к 125-летию со дня рождения). Сыктывкар, 601-606.

18. Мажидов Ш. (2015). Развитие этнокультурных процессов в Центральной Азии и Центральной Европе: сравнительный анализ //Общество и этнополитика. – 2015. – С. 352-356.

19. Мажидов Ш.Ф. (2014). К вопросу об этнокультурных процессах в Центральной Азии и Европейском Союзе //Евразийство: теоретический потенциал и практические приложения. – 2014. – №. 7. – С. 238-243.

20. Давранов, Э.А., Мажидов, Ш.Ф. (2021). Философия медицины и медицинский взгляд на философию. *Science and Education*, 2(5), 826-832.

21. Мажидов Ш.Ф. (2016). Развитие гражданской культуры сквозь призму модернизации образования (на примере Республики Узбекистан) //Актуальные проблемы социологии культуры, образования, молодежи и управления. – 2016. – С. 585-589.

22. Мажидов Ш.Ф. (2020). On the issue of ethnopolitical aspects of national security //Международный журнал Консенсус. – 2020. – Т. 1. – №. 2.

23. Мажидов, Ш. Ф. (2020). Миллий ҳавфсизликни этносиёсий жиҳатлари: ЕИ тажрибаси (2000-йиллар боши). Взгляд в прошлое, (SI-1№ 2).

24. Мажидов, Ш. Ф. (2017). К вопросу об этнокультурной безопасности (на примере Центральной Азии). In Власть в логике и риторике межнациональных и межконфессиональных отношений (pp. 78-81).

25. Мажидов, Ш. Ф., Саидова, Х. (2007). Реформы в сфере образования и личность преподавателя. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, 5, 225-225.

26. Ибрагимов, Б.Д., Мажидов, Ш.Ф. (2022). Становление стоматологии как профессии и научной дисциплины. *Science and Education*, 3(11), 237-247.

27. Халимбетов, Ю. М., Юлдашев, С. Ж., & Ибрагимова, Э. Ф. (2021). Преодоление мировоззренческого индифферентизма важное условие активизации человеческого фактора. *Science and Education*, 2(3), 391-395.

28. Umurov, S.R. (2022). In the second half of the XIX century in Turkestan waqf condition of property. *Thematics Journal of Social Sciences*, 8(2).

29. Umurov, S.R. (2021). Issues of historiography of the Russian Empire's attitude to education and foundation property policy in Turkestan. *International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences*. Vol. 10. No.12. Dec 2021//<https://garph.co.uk/IJARMSS/Dec2021/G-3.pdf>